

Eshqorayev Javohir

*Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot,
o‘rmonchilik va veterinariya fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi
talabasi*

eshqorayevjavohir@gmail.com

ANNOTATSIYA

Jahon xo‘jaligida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari qishloq xo‘jaligi sohasining ham tubdan yangilanishini taqozo etmoqda. Agrar sektorda raqamli texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni qisqartirish va mahsuldorlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligida dronlar, GPS-monitoring, aqlli sug‘orish tizimlari, raqamli agroxaritalash, onlayn agroservislar va sun‘iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarining afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda agrar sohani raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, ularning amaliy natijalari va istiqboldagi vazifalar ko‘rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish qishloq xo‘jaligini samarali boshqarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash hamda iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim strategik omil hisoblanadi.

KALIT SO‘ZLAR raqamli iqtisodiyot, agrar sektor, smart-agrotexnologiya, avtomatlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi, resurslardan samarali foydalanish, agroinnovatsiya.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining tez sur‘atlarda rivojlanib borishi va ishlab chiqarish jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng kirib kelishi natijasida agrar sohaga ham raqamli yechimlarni joriy etish ehtiyoji kuchaydi. Bugungi globallashtirish sharoitida iqtisodiy tizimlarning integratsiyalashuvi barcha mamlakatlarni xalqaro bozordagi o‘zgarishlarga moslashish, raqobatbardoshlikni ta‘minlash va global iqtisodiy qonuniyatlar bilan uyg‘un holda faoliyat yuritishga majbur qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot mohiyatini aniqlash uchun, avvalo uning tarkibiy mazmuni va funksional jihatlarni ko‘rib chiqish lozim. Iqtisodiyotning raqamlashtirilishi — bu ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv va xo‘jalik yuritish jarayonlarida kompyuter texnologiyalari, internet platformalari, axborot tizimlari va sun‘iy

intellektdan kompleks foydalanish bo‘lib, u iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, tezkor boshqaruv va shaffoflikni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni raqamlashtirish yo‘nalishiga davlat darajasida katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-25-sonli Farmoni va 2020-yilning “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e‘lon qilinishi bu boradagi siyosatning uzviy davomiyligini ko‘rsatadi. Davlat rahbari tomonidan: “Yurtimizda ilm-fanni yuksaltirish, yosh avlodni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirish, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir”, — deb ta‘kidlanishi, raqamli savodxonlik va axborot texnologiyalarini joriy etishning ustuvor yo‘nalish ekanini yanada yaqqol ifodalaydi.

Prezidentimizning raqamli iqtisodiyot borasida bildirgan fikrlari nafaqat sanoat korxonalarini, balki agrar ishlab chiqarishni ham raqamlashtirish vazifasini qo‘yadi.

Fikrimizcha, har sohani rivojlanishida uning institutsional asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham, milliy iqtisodiyotimizning raqamli iqtisodiyotga o‘tishidagi islohotlar so‘nggi bir necha yillardan buyon mustahkam normativ-huquqiy poydevor zamini yaratib kelinmoqda, jumladan, 2018 yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-sonli qarori¹, 2018 yil 2 sentabrdagi «Raqamli ishonch» raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3927-sonli qarori, 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4022-sonli qarorlarida o‘z ifodasini topgan.

Aslida, iqtisodiyotning raqamlashtirish barcha sohani teng qamrab oldi, chunki bir iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayrim soha va tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini yaratilishi yoki qisqarishi, albatta iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga keng imkoniyatlarning yaratilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu jumladan, bunday o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi aniq.

Raqamli iqtisodiyotda raqamli boshqarish tizimiga o‘tish yo‘lida qishloq xo‘jaligidagi rejalashtirish, statistik ma‘lumotlar bazasi, maqbul agrotexnikaviy yondashuv masalalari, investitsion loyihalarga talab va taklif bazasi, innovatsion g‘oyalar bazasini bir muayyan qismga joylashtirish muhim omilga aylanmoqda.

¹ <https://lex.uz/docs/3806053>

² <https://lex.uz/docs/3891629>

³ <https://lex.uz/docs/4071219>

1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, agrar sohada raqamli texnologiyalarni qo‘llash tashkiliy jihatdn 4 ta tarmoqqa, huquqiy, innovatsion, infratuzilmaviy va kadrlar tayyorlash jarayonlariga bevosita ta‘sir qiladi.

Fikrimizcha, dastlab qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda raqamli texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

-yer maydonini (qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer maydonlarining tarkibiy tuzilmasi bo‘yicha, yer-suv resurslarini sifati, xududlar kesimida kishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer maydonlarining samaradorligi, kadastr va b.) va xosildorlikni rejalashtirish (kartografiya, xosildorlikni dasturlash, ekin turlari va xududlar kesimida va b);

- viloyat, tumandagi fermer va dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va boshqalar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;

- hududlar, qishloq xo‘jaligi va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda investitsiya jarayonlarini qiyosiy, dinamik, tarkibiy va boshqa tahlil qilish uchun ma‘lumotnomalarni (iqlim va geografik sharoitlar, demografiya, ekologiya va boshqalar) o‘z ichiga olgan hududlarning investitsiya pasportlarini shakllantirish) va b.;

- mintaqadagi innovatsiya jarayonlarini (innovatsiya darajasi, innovatsiya muhiti, innovatsiya dasturlari, loyihalarni boshqarish va boshqalar) kuzatish uchun, mintaqaning innovatsiyaviy jozibadorligini baholash uchun indikatorlar tizimi shakllantiriladi va b.;

- instrumental, axborot va dasturiy-texnologik qo‘llab-quvvatlashni (analitik materiallarning samaradorligi va sifatini oshiradi), viloyat rahbarlari va mutaxassislarining ekspert-tahliliy va boshqaruv faoliyatini, investitsiya va innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning turli bosqichlarida konsalting xizmatlarini rivojlantirishni to‘liq qo‘llab-quvvatlashga qadar: biznesni tayyorlashdan - loyihaning haqiqiy natijalarini baholashdan oldin rejalar, texnik-iqtisodiy asoslar va investitsiya memorandumlarini tayyorlash kabilardir.

Shu bilan birga, respublikamizning barcha hududlarida o‘zaro axborot almashish tizimini joriy qilish orqali agrar sohada yagona elektron tarmoq shakllatirish mumkin. Bunda, barcha qishloq xo‘jaliigi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida nafaqat axborot almashishi imkoni, balki sohada ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, fermer va dehqon xo‘jaliklari amaliyotdagi yangiliklar bilan o‘rtoqlashish, imkoniyatlar va mavjud muammolarni yechimini topishga erishish, bir so‘z bilan aytganda kovorking (coworking)ni yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

Shu bilan birga, 2030 yilga qadar “Raqamli O‘zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan ham chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan, shu jumladan

O‘zbekistonning axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi keng miqyosda butun mamlakat bo‘ylab telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish loyihalarini amalga oshirish orqali joriy qilindi, bular qatoriga quyidagilar kiradi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlilini ko‘rsatishicha, raqamli transformatsiya davri deb bir turdagi iqtisodiy tizimning boshqa turga to‘liq o‘tishi tushuniladi, lekin bugungi kunda quyidagi metodologik qoidalar yetishmasligini kuzatish mumkin:

-raqamli iqtisodiyotning standartlari va vositalari bugungi kunda tarmoqda xo‘jalik sub’ektlari uchun mavjud emas;

-qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiyani amalga oshirishning samarali mexanizmlari va vositalari davlat va tarmoqni boshqarish tizimida yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

-tarmoqda tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarning kamligi va tarmoqning investitsion jozibadorligi darajasining kamligi;

-yuqori hajmli kapital bilan ajralib turadigan raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ta’siri yetarlicha tez emasligi,

-qishloq xo‘jaligi sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun institutsional shart-sharoitlarning yetarli yemasligi;

-moslashuv davrida raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash uchun modernizatsiyalash jarayonlarini ilmiy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish zarur;

-texnika va texnologiyalar ta’minotini xorijiy mamlakatlar bilan bog‘liqligi, o‘z ichki imkoniyatlar asosida amalda amalga oshirishlik qiyinligi.

Umuman agrosanoat majmuasi va uning asosiy tarkibiy qismi - qishloq xo‘jaligi Respublikamiz iqtisodiyotining mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini shakllantiruvchi tarmoqlaridan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://lex.uz/docs/3806053>
2. <https://lex.uz/docs/3891629>
3. <https://lex.uz/docs/4071219>
4. O‘zbekiston respublikasi qonunlari.